




Xorazm viloyati statistika boshqarmasi



**QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK  
XO'JALIGI  
2024- YIL YANVAR-IYUN OYLARI  
(dastlabki ma'lumot)**






**2024- yilning yanvar-iyun oylarida  
Xorazm viloyatining  
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiyligi hajmi 11 259,7 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chovachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 10 966,0 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 90,3 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 203,4 mlrd so'mni tashkil qildi.

**Dehqonchilik va chovachilik, ovchilik  
va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar**





### Xorazm viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati

**01**

Dehqonchilik  
va chovachilik,  
ovchilik va ushbu  
sohalarda ko'rsatilgan  
xizmatlar – **104,3%**

**02**

O'rmon xo'jaligi –  
**102,1%**

**03**

Baliqchilik xo'jaligi –  
**109,4%**

2024- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 104,1 %ni, shu jumladan, dehqonchilik va chovachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 104,3 %ni, o'rmon xo'jaligi – 102,1 %ni, baliqchilik xo'jaligi – 109,4 %ni tashkil qildi.



## Ma'lumot uchun:


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida tarmoqning ijobiliy o'sish sur'atiga asosan quyidagi mahsulotlarning 2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati qayd etilganligi orgali erishildi:

✓ <i>Jami don</i>	— 126,8 %
✓ <i>Pilla</i>	— 116,9 %
✓ <i>Poliz</i>	— 110,8 %
✓ <i>Uzum</i>	— 109,1 %
✓ <i>Meva va rezavorlar</i>	— 105,6 %
✓ <i>Poliz Asal</i>	— 102,6 %



## Xorazm viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumi hajmining taqsimlanishi, %da

Dehqonchilik va  
chorvachilik, ovchilik  
va ushbu sohalarda  
ko'rsatilgan xizmatlar




2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumi hajmining 97,4 %i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlari (2023- yilning yanvar- iyun oylarida 97,4 %), 0,8 %i – o'rmon xo'jaligi (0,8 %), 1,8 %i – baliqchilik xo'jaligi (1,8 %) hissasiga to'g'ri keldi.



**Hududlar kesimida qishloq,o'rmon va baliqchilik  
xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining  
hajmi, mlrd so'm**

2024- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Qo'shko'pir (1288,9 mlrd so'm), Urganch (1269,6 mlrd so'm) va Xonqa (1159,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.



Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Xiva shahrini (45,9 mlrd so'm), Urganch shahrini (243,4 mlrd so'm) hamda Tuproqqal'a tumanini (277,9 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.




**Ma'lumot uchun:**

2024- yilning yanvar-iyun oylarida Qo'shko'pir, Urganch va Xonqa tumanlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiylajmi bo'yicha viloyatda yetakchi o'rinnarni egallashi, mazkur hududlarning go'sht, sut, tuxum, don, sabzavot, poliz, meva va rezavorlar kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida yuqori ulushga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

Aksincha, go'sht, sut, tuxum, sabzavot kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida Xiva, Urganch shaharlari va Tuproqqa'l'a tumani kam ulushga ega ekanligini qayd etish lozim.





**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiylajmi hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, %da**





Viloyatda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida eng yuqori va eng kam ulishga ega hududlar



Yuqori o'sish sur'atlari Tuproqqa'l'a Qo'shko'pir (112,6 %), Xiva (106,0 %) va Gurlan (105,7 %), tumanlarda qayd etildi.



**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi  
mahsulot (xizmat)larining umumi hajmida  
kichik biznes va xususiy tadbirkorlik**

	<i>Hajmi mlrd so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, %da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, %da</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>11 192,6</b>	<b>104,8</b>	<b>99,4</b>
Urganch sh	236,6	102,3	97,2
Xiva sh	45,9	100,1	100,0
Bog'ot	1084,4	108,5	99,8
Gurlan	1083,8	105,6	99,8
Qo'shko'pir	1282,4	102,2	99,5
Urganch	1266,3	103,6	99,7
Hazorasp	1078,1	102,5	99,9
Tuproqqa'l'a	277,4	112,8	99,8
Xonqa	1155,4	105,5	99,7
Xiva	912,7	105,9	99,8
Shovot	1116,1	105,2	99,6
Yangiariq	854,0	102,6	96,5
Yangibozor	799,5	105,5	99,5

Viloyatning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumi hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 99,4 % ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichni hududlar bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, jami tarmoqqa nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yuqori ulushiga ega bo'lgan Hazorasp tumani (99,9 %) va boshqa ko'pgina tumanlarni (99,8 %-99,5 %) keltirishimiz mumkin. Bu ko'rsatkich Yangiariq tumanida 96,5 % va Urganch shahrida 97,2 % ni tashkil etdi.



## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari



**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari** — hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 10 815,0 mlrd so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,4 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 2 886,7 mlrd so'mni (110,7 %), chorvachilik mahsulotlari 7 928,3 mlrd so'mni (104,9 %) tashkil qildi.



## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Dehqonchilik  
mahsulotlari




Chorvachilik  
mahsulotlari

26,7 %

73,3 %



## QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI




Xorazm viloyati  
2024- yil yanvar-iyun



**10815,0**  
mlrd so'm

O'sish surati  
**106,4 %**

Qishloq, o'rmon va baliqchilik  
xo'jaligining umumiyligi  
hajmdagi ulushi, % da




Viloyatda jami yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Urganch (11,4%), Qo'shko'pir (11,2 %), Xonqa (10,4 %) va Shovot (10,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimida tahvil etar ekanmiz, yuqori o'sish sur'atlari Tuproqqa'l'a (112,6 %), Xiva (105,7 %), Gurlan (105,6 %) va Yangibozor (105,3 %) tumanlarida qayd etildi.



### Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, %da



**Dehqonchilik mahsulotlari ishlab  
chiqarishda yuqori ulushga ega  
hududlar**

**Chorvachilik mahsulotlari ishlab  
chiqarishda yuqori ulushga ega  
hududlar**

01 ▶ Tuproqqal'a

02 ▶ Bog'ot

03 ▶ Yangibozor

Urganch sh ▶ 01

Qo'shko'pir ▶ 02

Urganch ▶ 03



### Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, %da



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 77,7 %i – dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 17,8 %i – fermer xo'jaliklariga, 4,5 %i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




#### *Ma'lumot uchun:*

Asosiy turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ulushi quyidagicha:

- ✓ Sog'ib olingan sut — 94,7 %
- ✓ Go'sht (tirik vaznda) — 88,4 %
- ✓ Qirqib olingan jun — 82,5 %
- ✓ Sabzavotlar — 69,3 %
- ✓ Meva va rezavor — 68,6 %



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining  
hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari  
kesimida taqsimlanishi, %da



2024- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Tuproqqal'a va Yangibozor tumanlariida (27,9 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch shahrida (99,4 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qo'shko'pir tumanida (15,4 %) qayd etildi.




Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'satkich Bog'ot tumanida (12,9 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Qo'shko'pir tumanida (68,7 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urganch shahrida (0,6 %) kuzatildi.




## Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi

### Dehqonchilik mahsulotlari



### Chorvachilik mahsulotlari



Fermer  
xo'jaliklari


Dehqon  
(shaxsiy yordamchi)  
xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi  
faoliyatini amalga  
oshiruvchi  
tashkilotlar




## Dehqonchilik mahsulotlari

Viloyatda jami yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Bog'ot (12,9 %), Urganch (11,9 %), Xonqa (10,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.



Qishloq xo'jaligining  
umumiylajmdagi ulushi,  
% da



Ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz, yuqori o'sish sur'atlari Tuproqqal'a (142,4 %), Xiva (119,6%) va Xonqa (118,4%) tumanlarida qayd etilgani kuzatiladi.




## Jami don



Xo'jalik toifalari orasida jami don yetishtirishning eng katta hajmi 300039 tonna yoki umumi yetishtirish hajmidan 76,2 % i fermer xo'jaliklarda qayd etildi.

2023- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarda 36,6 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarda 2,4 %, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 7,0 % o'sish qayd etildi.

## Hududlar bo'yicha jami don yetishtirish



Hududlar o'rtaida jami don yetishtirish tarkibining asosiy qismini Xonqa va Shovot tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 11,8 % va 11,5 % ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Urganch (11,1 %) va Gurlan (10,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Tuproqqa'l'a (3,9 %) va Yangiariq tumanlarida (5,5 %) kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Tuproqqa'l'a (191,3 %), Xiva (141,6), Xonqa (135,4 %), Bog'ot (132,4 %), Gurlan (130,1 %), Urganch (126,4 %) va Shovot (125,1 %) tumanlarida qayd etildi.




## Bug'doy



Xo'jalik toifalari orasida bug'doy yetishtirishning eng katta hajmi 293850 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 76,0 %i fermer xo'jaliklarida qayd etildi.

2023- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida 37,3 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 2,4 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 8,3 % o'sish qayd etildi.

## Hududlar bo'yicha bug'doy yetishtirish



Hududlar o'tasida bug'doy yetishtirish tarkibining asosiy qismini Shovot va Xonqa tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 11,6 % va 11,4 % ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Urganch va Gurlan (10,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Urganch shahri (0,1 %) va Tuproqqa'a tumanida (3,8 %) kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Tuproqqa'a (195,7 %), Xiva (143,5 %) va Bog'ot (133,7 %) tumanlarida qayd etildi.




## Kartoshka



Xo'jalik toifalari orasida kartoshka yetishtirishning eng katta hajmi 48106 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 67,2 %ni dehqon va tomorqa xo'jaliklarda qayd etildi.

2023- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda fermer xo'jaliklarida 9,8 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,8 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 23,3 % o'sish qayd etildi.

## Hududlar bo'yicha kartoshka yetishtirish



Hududlar o'rtasida kartoshka yetishtirish tarkibining asosiy qismini Urganch va Yangibozor tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 16,5 % va 13,3 % ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Xonqa (12,2 %) tumanida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Xiva (0,3 %) va Urganch (1,2 %) shaharlarida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Yangiariq (111,5 %), Xiva (108,5 %) va Tuproqqa'a (105,6 %) tumanlarida qayd etildi.




## Sabzavotlar



Xo'jalik toifalari orasida sabzavotlar yetishtirishning eng katta hajmi 71924 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 69,3 % dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

2023- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda fermer xo'jaliklarida 14,6 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,1 %, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 9,3 % o'sish qayd etildi.

## Hududlar bo'yicha sabzavotlar yetishtirish




Hududlar o'rtasida sabzavot yetishtirish tarkibining asosiy qismini Bog'ot va Yangiariq tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 23,2 % va 10,9 % ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Urganch (10,5 %) va Gurlan (9,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Urganch (0,4 %) va Xiva (1,7 %) shaharlarida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Shovot (109,9 %) va Tuproqqa'l'a (109,8 %) tumanlarida qayd etildi.




## Poliz



Xo'jalik toifalari orasida poliz mahsulotlari yetishtirishning eng katta hajmi 8166 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 76,7 %i fermer xo'jaliklarda qayd etildi.

2023- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda fermer xo'jaliklarida 4,3 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,3 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 6,6 % o'sish qayd etildi.

## Hududlar bo'yicha poliz mahsulotlari yetishtirish



Hududlar o'rtaida poliz mahsulotlari yetishtirish tarkibining asosiy qismini Xonqa va Urganch tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 27,2 % va 12,5 %ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Qo'shko'pir (10,9 %) va Hazorasp (8,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Urganch shahri (0,5 %), Bog'ot (2,9 %) va Xiva tumanlarida (4,7 %) kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Xiva (126,2 %), Tuproqqa'a (132,6) % va Shovot (105,6 %) tumanlarida qayd etildi.




## Meva va rezavorlar



Xo'jalik toifalari orasida meva va rezavorlar yetishtirishning eng katta hajmi 27236 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 68,6 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklarda qayd etildi.

2023- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda fermer xo'jaliklarda 19,2 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarda 0,3 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 16,8 % o'sish qayd etildi.

## Hududlar bo'yicha meva va rezavorlar yetishtirish




Hududlar o'rtasida meva va rezavorlar yetishtirish tarkibining asosiy qismini Urganch va Shovot tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 15,7 % va 13,6 %ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Hazorasp va Xiva (10,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Xiva (0,4 %) va Urganch (0,6 %) shaharlarda kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Shovot (124,3 %), Gurlan (111,0 %) tumanlarida va Xiva (107,1 %) shahrida qayd etildi.




## Uzum



Xo'jalik toifalari orasida uzum yetishtirishning eng katta hajmi 691 tonna yoki umumi yetishtirish hajmidan 55,3 % fermer xo'jaliklarida qayd etildi.

2023- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda fermer xo'jaliklarida 15,0 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 2,4 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 9,1 % o'sish qayd etildi.

## Hududlar bo'yicha uzum yetishtirish




Hududlar o'rtaida uzum yetishtirish tarkibining asosiy qismini Bog'ot va Yangibozor tumanlari egallamoqda, ularning ulushi 25,1 % va 15,6 %ga teng bo'ldi. Shuningdek, yuqori ulush Hazorasp (12,2 %) va Qo'shko'pir (9,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Urganch (0,5 %) shaharlarida kuzatildi.


Yuqori o'sish sur'atlari Gurlan (141,0 %), Urganch (117,7 %), Yangibozor (116,4 %), Xiva (110,4 %) va Xonqa (110,2 %) tumanlarida qayd etildi.



## Chorvachilik mahsulotlari



Qishloq xo'jaligining umumiyligi  
hajmidagi ulushi, % da



Viloyatda jami yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Qo'shko'pir (11,9 %), Urganch (11,3 %), Xonqa (10,4 %), Gurlan va Shovot (10,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz, yuqori o'sish sur'ati Yangibozor (102,7 %) tumanida qayd etildi.



2024- yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy  
turdag'i chorvachilik mahsulotlari

	<i>Barcha toifadagi xo'jaliklar</i>		<i>shu jumladan:</i>					
			<i>fermer xo'jaliklari</i>		<i>dehqon va tomorqa xo'jaliklari</i>		<i>qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>tonna</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>tonna</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>tonna</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>tonna ,</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>
Go'sht (tirik vaznda)	98 491	101,3	3 184	111,3	87 074	101,0	8 233	101,0
Sut	570 465	101,0	27 904	110,9	539 953	100,7	2 608	85,9
Tuxum mln, dona	244,8	100,2	25,0	109,6	175,0	102,2	44,8	88,8
Jun	658,0	103,1	92,0	109,5	543,0	101,3	23,0	127,8
Pilla	2523,0	116,9	982,7	136,7	-	-	1540,3	107,1
Baliq	8450,5	110,0	6011,4	107,0	623,2	101,5	1815,9	125,3


2024- yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan go'sht to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, go'sht yetishtirishning 3,2 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 88,4 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,4 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. Shunga mos ravishda sut yetishtirishning 4,9 %i fermer xo'jaliklariga, 94,7 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,5 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, olingan tuxumning 10,2 %i fermer xo'jaliklariga, 71,5 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 18,3 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Ovlangan




baliqning 71,1 %i fermer xo'jaliklariga, 7,4 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 21,5 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

## Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024– yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 98,5 ming t. go'sht (2023– yilning yanvar– iyun iga nisbatan 1,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 88,4 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.

**Hududlar bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish, tonna**




## Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024–yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 570,5 ming t. sut (2023–yilning yanvar–iyuniga nisbatan 1,0 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,6% dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

**Hududlar bo'yicha sut yetishtirish, tonna**




## Tuxum


Hajmi, mln dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024–yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 244,8 mln dona tuxum (2023–yilning yanvar–iyuniga nisbatan 0,2 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiylajmidan 71,5 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




## Hududlar bo'yicha tuxum yetishtirish, ming dona






## Baliq


Hajmi,tonna



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024–yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 8 450,5 tonna (2023–yilning yanvar–iyuniga nisbatan 10,0 %ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 71,1 %i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

**Hududlar bo'yicha ovlangan baliqlar, tonna**



# Xorazm viloyati statistika boshqarmasi



**2024- yilning 1- iyul holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha  
chorva mollari va parrandalar bosh soni**


	Barcha toifadagi xo'jaliklar	shu jumladan:							
		fermer xo'jaliklari		dehqon va tomorqa xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar			
		ming bosh	o'sish sur'ati % da	ming bosh	o'sish sur'ati % da	ming bosh	o'sish sur'ati % da	ming bosh	o'sish sur'ati % da
Yirik shoxli qoramollar	962,2	101,4	79,1	107,5	868,8	100,9	14,3	104,4	
shundan, sigirlar	361,9	101,3	32,9	109,7	323,5	100,4	5,5	110,0	
Qo'y va echkilar	494,6	102,8	88,1	108,8	372,8	101,0	33,7	108,0	
Otlar	5,7	102,0	0,8	109,5	4,8	100,5	0,1	117,7	
Parrandalar	7062,4	103,5	1176,1	115,9	3926,3	101,0	1960,0	102,0	

2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,2 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 90,3 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,5 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. Shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 17,8 %i fermer xo'jaliklariga, 75,4 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,8 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Shuningdek, otlarning umumiy sonidan 14,8 %i fermer xo'jaliklariga, 83,9 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,3 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Parrandalar umumiy sonidan 16,7 %i fermer xo'jaliklariga, 55,6 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 27,8 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.




## Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024–yilning 1–iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiyligi bosh soni 962,2 mingtaga yetdi. 2023–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 13,6 mingtaga (1,4 %) ko'paydi.

2024–yilning 1–iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 90,3 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




## Hududlar bo'yicha yirik shoxli qoramollar bosh sonlari, ming bosh






## Sigirlar


**Soni, ming bosh**



**O'sish sur'ati**



**Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024–yilning 1–iyul holatiga ko'ra, sigirlarning umumiyl bosh soni 361,9 mingtaga yetdi. 2023–yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni 4,7 mingtaga (1,3 %) ko'paydi.

2024–yilning 1–iyul holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 89,4 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda.




## Sigirlar, ming bosh






## Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024– yilning 1– iyul holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiyligi bosh soni 494,6 mingtaga yetdi. 2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni 13,4 mingtaga (2,8 %) ko'paydi.

2024– yilning 1– iyul holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 75,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda.




## Qo'y va echkilar, ming bosh






## Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari



Dehqon va tomorqa  
xo'jaliklari



Qishloq xo'jaligi faoliyatini  
amalga oshiruvchi  
tashkilotlar




2024– yilning 1– iyul holatiga ko'ra, otlarning umumiyl bosh soni 5 650 taga yetdi. 2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni 109 boshga (2,0 %) ko'paydi.

2024– yilning 1– iyul holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 83,9 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlash lozim.




## Otlar, bosh






## Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024– yilning 1– iyul holatiga ko'ra, parrandalarning umumiyligi bosh soni 7 062,4 mingtaga yetdi. 2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni 237,7 mingtaga (3,5%) ko'paydi.

2024– yilning 1– iyul holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 55,6 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



## Parrandalar, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'limi

• 62-224-64-96